# XONLIKLAR ADABIY MUHITINI O'RGANISHDA YOZMA MANBALARNING ILMIY AHAMIYATI

**Saotboyev Raxmatjon Madamin o'g'li**
Telefon raqam: +998(93) 283 08 32
rsaotboyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6896-3849
https://doi.org/10.5281/zenodo.22982304

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida shakllangan adabiy-madaniy muhitni o'rganishda mahalliy tarixnavislik asarlari, tazkiralar, qo'lyozma hamda toshbosma manbalar shuningdek, arxiv hujjatlarining ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Manbalar mazmuni va funksional xususiyatlariga ko'ra tarixiy xronikalar, adabiy-biografik asarlar, xotiralar, qo'lyozma va kitobat mahsulotlari hamda institutsional hujjatlarga ajratiladi. Ayniqsa, Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II Feruz hukmronligi davrida adabiyot, musiqa, tarjimonlik va xattotlikning saroy muhiti bilan aloqasi Laffasiy, Ahmad Tabibiy va Bobojon Tarroh-Xodim asarlari asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari turli tipdagi yozma manbalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish xonliklardagi adabiy jarayon, ijodkorlar faoliyati hamda davlat homiyligining mazmunini yanada aniqroq ochib berishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Xonliklar, adabiy muhit, tarixnavislik, tazkira, davlat homiyligi, Feruz, qo'lyozma, kitobat.

**Аннотация:** В настоящем исследовании анализируется научное значение местных историографических сочинений, тазкире, рукописных и литографированных источников, а также архивных документов для изучения литературно-культурной среды, сформировавшейся в Бухарском эмирате, Хивинском и Кокандском ханствах. В зависимости от содержания и функциональных особенностей источники подразделяются на исторические хроники, литературно-биографические произведения, мемуары, рукописные и книжные материалы, а также институциональные документы. Особое внимание уделяется взаимосвязи литературы, музыки, переводческой деятельности и каллиграфии с придворной средой в период правления Мухаммад Рахим-хана II Феруза в Хивинском ханстве на основе сочинений Лаффасия, Ахмада Табибия и Бабаджана Таррох-Ходима. Результаты исследования показывают, что взаимное сопоставление письменных источников различных типов позволяет более точно раскрыть особенности литературного процесса, деятельность творческих деятелей и содержание государственной поддержки в ханствах.

**Ключевые слова:** ханства, литературная среда, историография, тазкире, государственное покровительство, Феруз, рукопись, книжная культура.

**Abstract:** This study analyzes the scholarly significance of local historiographical works, tazkiras, manuscript and lithographic sources, as well as archival documents for the study of the literary and cultural environment that developed in the Bukhara Emirate, Khiva Khanate, and Kokand Khanate. According to their content and functional characteristics, the sources are classified into historical



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

chronicles, literary-biographical works, memoirs, manuscript and book-production materials, and institutional documents. Particular attention is paid to the relationship between literature, music, translation, and calligraphy and the court environment during the reign of Muhammad Rahim Khan II Feruz in the Khiva Khanate, based on the works of Laffasiy, Ahmad Tabibiy, and Bobojon Tarroh-Khodim. The findings demonstrate that a comparative analysis of different types of written sources makes it possible to elucidate more precisely the literary processes, the activities of creative figures, and the nature of state patronage in the khanates.

**Keywords:** khanates, literary environment, historiography, tazkira, state patronage, Feruz, manuscript, book culture.

**Kirish**

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixida adabiyot, tarixnavislik, tarjimonlik, xattotlik va kitobat madaniyati muhim o‘rin egallagan. Mazkur jarayonlar haqidagi ma’lumotlar mahalliy tarixnavislar asarlari, tazkiralar, xotiralar, qo‘lyozma va toshbosma kitoblar hamda arxiv hujjatlarida saqlangan [1–3].

Xonliklar adabiy muhitini o‘rganishda ushbu manbalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Tarixiy xronikalar siyosiy jarayonlarni yoritgan bo‘lsa, tazkiralar shoir va ijodkorlarning hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida bevosita ma’lumot beradi. Qo‘lyozma va toshbosma asarlar esa kitobat madaniyati, xattotlik an’analari, asarlarning tarqalishi va ilmiy-adabiy aloqalarni aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi. Arxiv hujjatlari esa madaniy faoliyatning iqtisodiy va tashkiliy asoslarini aniqlashga xizmat qiladi [1–3].

**Asosiy qism**

Buxoro amirligi tarixiga oid yozma manbalar dastlab siyosiy va harbiy voqealarni yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, ularda ilmiy-adabiy muhitga oid ma’lumotlar ham mavjud. Buxoro tarixiga oid xronikalar, jumladan, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari siyosiy tarixni yoritish bilan bir qatorda davrning ijtimoiy-madaniy muhitiga oid ma’lumotlarni ham saqlab qolgan [4]. Shu jihatdan tarixiy xronikalarni faqat siyosiy tarix manbasi sifatida emas, balki davrning ma’naviy va madaniy hayotini o‘rganishga xizmat qiluvchi manba sifatida ham baholash mumkin.

Buxoro kitobat maktabining rivojlanganligini turli kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlar orqali kuzatish mumkin. Qo‘lyozma kataloglari xattotlar, kitobat ustaxonalari, kutubxonalar va asarlarning tarqalish tarixini o‘rganish uchun muhim manba vazifasini bajaradi [1].

Qo‘qon xonligi tarixnavislik maktabi vakillarining asarlarida ham siyosiy voqealar bilan bir qatorda xonlikdagi ilmiy va adabiy muhitga oid ma’lumotlar uchraydi. Muhammad Hakimxon To‘raning “Muntaxab at-tavorix”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnamoyi”, Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” kabi asarlari Qo‘qon xonligi tarixini turli jihatlardan o‘rganish imkonini beradi [2; 5–8]. Ushbu manbalarda hukmdorlar faoliyati bilan bir qatorda xonlikning ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy hayotiga oid ma’lumotlar ham uchraydi.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid arxiv hujjatlari esa davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va saroy faoliyatining amaliy tomonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari xonlikdagi ma’muriy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni hujjatli asosda tadqiq etish imkonini beradi [3].



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xiva xonligida adabiy muhitni tadqiq etishda Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlari alohida ahamiyatga ega. Munisning "Firdavs ul-iqbol" asari Xorazm tarixining muhim yozma manbalaridan biri bo'lib, uning keyingi qismi Ogahiy tomonidan davom ettirilgan [9]. Ogahiyning tarixiy asarlarida siyosiy voqealar bilan bir qatorda saroy hayoti, ilm-fan, adabiyot, tarjimonlik va kitobat faoliyatiga oid ma'lumotlar ham uchraydi [10].

Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" asarlari ham Xiva xonligi tarixining, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy va madaniy jarayonlarning muhim yozma manbalari hisoblanadi [11]. Bayoniy o'z davrining tarixnavisi va shoiri sifatida Xorazm adabiy-madaniy muhitining ayrim jihatlarini bevosita aks ettirgan.

Xiva adabiy muhitining o'ziga xos jihatlaridan biri Muhammad Rahimxon II Feruz saroyi atrofida shakllangan ijodiy muhit bilan bog'liq. Bobojon Tarroh-Xodimning "Xorazm navozandalari" asarida Feruz davridagi saroy ijodkorlari, shoirlar va musiqachilar faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [12]. Mazkur asar Feruz davri adabiy-madaniy muhitini o'rganishda muhim manbalardan biri sifatida qaraladi.

Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asari esa Xorazm shoirlari va adabiy muhit vakillarining hayoti hamda ijodiy faoliyatini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Tazkirada ko'plab ijodkorlar haqida biografik ma'lumotlar va ularning ijodidan namunalar berilgan [13]. Tadqiqotlarda Laffasiy tazkirasining qo'lyozma nusxalari va matniy xususiyatlari ham manbashunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganilgan.

Ahmad Tabibiyning "Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy" asari ham Feruz davri adabiy muhitini o'rganish uchun muhim manbalardan biridir [14]. Ushbu asar Feruz saroyi atrofida shakllangan adabiy doira, shoirlar o'rtasidagi ijodiy aloqalar va hukmdorning adabiyotga munosabati haqida ma'lumot beradi. Tabibiy tomonidan tuzilgan mazkur tazkira-majmualar Feruz davridagi adabiy harakatni o'rganishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

Mazkur manbalar davlat homiyligining adabiyot va san'at rivojidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Bunda homiylik ijodkorlarni saroyga jalb etish, asarlarni ko'chirish va tarjima qilish, she'riy majlislar tashkil etish hamda tazkiralar tuzish kabi shakllarda namoyon bo'lgan. Biroq bu ma'lumotlarni baholashda saroy muhitiga mansub manbalarning mualliflik pozitsiyasi va tarixiy kontekstini ham hisobga olish zarur. Shuningdek, Xiva xonlari kanselyariyasi hujjatlari va vaqf hujjatlari madrasalar, ta'lim muassasalari hamda ularning iqtisodiy asoslarini o'rganishda muhimdir [15]. Shu sababli adabiy muhit tarixini faqat badiiy matnlar asosida emas, balki arxiv, vaqf va boshqa institutsional hujjatlar bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq.

**Xulosa**

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixiga oid yozma manbalar adabiy jarayonlar va davlat homiyligi tarixini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ularni tarixiy xronikalar, tazkiralar, xotiralar, qo'lyozma va toshbosma asarlar hamda arxiv hujjatlariga ajratish mumkin.

Xiva xonligi misolida tazkiralar va tarixiy asarlar Feruz davridagi saroy adabiy muhitining tarkibi, shoirlar va tarjimonlar faoliyati hamda hukmdorning adabiyot va san'atga munosabatini aniqlash imkonini beradi. Laffasiy, Tabibiy va Bobojon Tarroh-Xodim asarlari mazkur davr adabiy muhitining turli jihatlarini yorituvchi bir-birini to'ldiruvchi manbalar sifatida namoyon bo'ladi [12–14].

Buxoro va Qo'qon manbalari esa tarixnavislik, kitobat va ilmiy-madaniy muhitning boshqa jihatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Xususan, Qo'qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar xonlikning siyosiy tarixini yoritish bilan bir qatorda, davrning ijtimoiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni ham saqlab qolgan [5–8].



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Umuman, turli tipdagi manbalarni o‘zaro qiyoslash xonliklar davridagi adabiy-madaniy jarayonlarning ichki tuzilishi, ijodkorlar faoliyati, kitobat an’analari va davlat homiyligining shakllarini kompleks ravishda tadqiq etish imkonini beradi. Shu jihatdan yozma manbalarni manbashunoslik tamoyillari asosida tasniflash, ularning yaratilish sharoiti, mualliflik pozitsiyasi va axborot imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish xonliklar adabiy muhitining tarixiy qiyofasini aniqroq tiklashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmadov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
2. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. XIX asr – XX asrning boshlari. – Toshkent, 1998.
3. Троицкая А. Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968.
4. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1–2 jild. – Toshkent: Sharq, 1999–2000.
5. Muhammad Hakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin (Qo‘qon xonligi tarixi). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1995.
7. Avaz Muhammad Attor. Tarixi jahonnamoyi / fors-tojik tilidan Sh. Vohidov tarjimasi // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119–137.
8. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
9. Munis Xorazmiy, Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
10. Ogahiy, Muhammad Rizo. Riyoz ud-davla; Zubdat ut-tavorix; Jome’ ul-voqeoti sultoniy; Gulshani davlat; Shohid ul-iqbol. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.
11. Bayoniy Muhammad Yusuf. Shajarayi Xorazmshohiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
12. Bobojon Tarroh-Xodim. Xorazm navozandalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
13. Laffasiy Hasanmurod. Tazkirayi shuaro / nashrga tayyorlovchi P. Bobojonov. – Urganch: Xorazm, 1992.
14. Tabibiy Ahmad. Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy. – Qo‘lyozma. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi.
15. Xusanov S. X. Xiva xonligida XIX–XX asrning birinchi choragiga qadar davrda arxiv ishi va uning o‘rganilishi // Research Focus. – 2022. – № 3. – B. 94–98.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.